O'ZBEK VA NEMIS TILLARIDA RAVISHNING TUZILISHIDAGI TAFOVUT VA O'XSHASHLIKLAR

Buranova Nafisa
NamDU Lingvistika (nemis tili), 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek va nemis tillaridagi ravish so'z turkumi o'zaro qiyoslangan. Ikki til oilasiga mansub tillar o'rtasidagi o'xshash va farqli xususiyatlar ilmiy va nazariy jihatdan bir nechta misollar orqali yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Sodda ravish, tub ravish, so'z birikmasi, tarkibiy qism.

Annotation: This article the idioms of the Uzbek and German languages Similatieres and differences between languages belonging to two language families are scientifically and theoretically explained through several examples.

Key words: simple expression, root expression, word combination, component.

Kirish. Har qanday tilda bo'lgani kabi o'zbek va nemis tillaridagi ravishlar ham tildagi so'z boyligining asosiy qismini tashkil etadi. O'zbek va nemis tillari bir-biriga mutlaqo qardosh bo'lmagan tillar bo'lganligi uchun ham, har qanday til hodisasini ushbu tillarda qiyoslab o'ganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan sanaladi.

Ravish - mustaqil so'z turkumlaridan biri bo'lib, harakat va holatning belgisini, shuningdek, belgining belgisini bildiradi. Ravishlar morfologik tarkibiga ko'ra asosan uch guruhga bo'linadi:

1) Sodda ravishlar; 2) Qo'shma ravishlar; 3) Juft ravishlar.

Sodda ravishlar. Birgina so'zdan iborat bo'lgan ravishlar sodda ravishlar deyiladi. Sodda ravishlar o'zbek tilida tuzilishi jihatidan ikki guruhga ajratiladi:

1) Tub ravishlar. Bular morfologik jihatdan tarkibiy qismlarga bo'linmaydi.

Masalan:sira, zo'rg'a, arang, to'satdan, zo'rg'a, arang, bultur, olg'a, yana, nari, beri, eng, sekin, doim nari, ilgari va boshqalar.

Yasama ravishlar. Bular morfologik tuzulishiga ko'ra ikki qismdan – asos va so'z yasovchi qo'shimchadan iborat bo'ladi. Har xil so'z turkumiga mansub bo'lgan asosga so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shilishi bilan yasama ravish hosil bo'ladi.

Masalan: do'stlarcha, mardona, donolarcha, qahramonona, tasodifan, aravalab, yashirin, yangicha, soldatchasiga, hazilnamo, mardlarcha kabi.

Asosiy qism. Nemis tilida ham sodda ravishlar o'zbek tilidagi kabi tuzilishi jihatidan ikki guruhga ajraladi:

1) Tub ravishlar. Bular morfologik jihatdan tarkibiy qismlarga bo'linmaydi.

Masalan: dort, da,, bald, wann?, sehr, wie?, sonst va boshqalar.

2) Yasama ravishlar. Bular morfologik tuzulishiga ko'ra ikki qismdan – asos va so'z yasovchi qo'shimchadan iborat bo'ladi. Har xil so'z turkumiga mansub bo'lgan asosga so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shilishi bilan yasama ravish hosil bo'ladi.

Bunda so'zning asos qismiga ma'lum bir qo'shimcha yoki boshqa bir so'z turkumiga oid bo'lgan so'z qo'shilishi orqali hosil bo'ladi. Bu so'z yasash usuli eng ko'p tarqalgan so'z yasash usullaridan biri hisoblanadi.

Masalan: abends, mittags, morgens, nachts, anfangs, beiderseits, allerseits, allerorts, eilends, schnellstens, bestens, frühestens, neuerdings, jährlings, seewärts, talwärts, nordwärts, westwärts, seltsamerweise, lächerlicherweise, schrittweise, bekanntermaßen, mancherlei, keinerlei va boshqalar [1].

Qo'shma ravishlar. Ikki yoki undan ortiq so'zlarning o'zaro birikishidan hosil bo'lgan ravishlar qo'shma ravishlar hisoblanadi.

O'zbek tilida qo'shma ravishlar quyidagicha ko'rinishlarga ega:

1) Qismlari alohida qo'llana oladigan, mustaqil leksik ma'noga ega bo'lgan qismlardan tarkib topgan ravishlar. Bunday ravishlarning qismlaridan birortasi ham morfologik qo'shimchalar olmaydi. Masalan: bir lahza, bir oz, bir zamon, bir zum, hech qachon, hech vaqt kabi.

2) O'z leksik ma'nolarini saqlagan so'zlarning aniqlovchi-aniqlanmish munosabatda birikishidan tarkib topgan ravishlar. Masalan: o'tgan kun(i), shu zahoti, hamma vaqt, kuni kecha, shu yerda, bu yerda, shu yoqqa, shu kuyi, shu kecha, tunov kun kabi .

Qiyosiy grammatika fani mustaqil fan sifatida o'z tekshirish obyekti, metodi, ilmiy-nazariy va amaliy aspektlariga ega. Hozirgi nemis va o'zbek tillarida ravishlarni quyidagicha qiyoslash mumkin.

1. Ravish har ikkala tilda ham ish-harakatning qay holda bajarilishini, paytini, sababini, o'rnini va ba'zan predmetning belgisini ifodalaydi.

2. Ravishlar nemis tilida ham o'zbek tilida ham asosan ikki usul, ya'ni affiksatsiya (morfologik usul) usuli hamda kompozitsiya (sintaktik usul) usuli bilan yasaladi.

3. O'zbek tilida morfologik usul bilan ravish yasash, negizga -cha, -larcha, -day, -dek, -lab, -ona, -an, -lay (-layin), -nama, -ligicha, -(i)ncha, n(in), -iga, (-siga), -gacha, -chasiga,-siz, -simon kabi yasovchi affikslar qo'shish bilan hosil qilinsa, nemis tilida ravishlar -lings, -wärts, -lich, -sam, -weise, -maßen, -weise, -dings, - seits,-wegen, -wiellen, -halben, -willen –wegen, -s singari suffiks va yarim suffikslar yordamida yasaladi:

4. O'zbek va nemis tillaridagi ravish yasovchi qo'shimchalarning ayrimlari ma'no jihatdan ma'lum darajada mos kelsada, lekin ba'zilari butunlay mos kelmaydi.

-lings, -lich suffikslari yordamida yasaluvchi ravishlar ma'nosi o'zbek tilining -larcha, -day, -dek affiksi bilan yasaluvchi ravishlarning ma'nolariga yaqin keladi.

5. O'zbek tilidagi ayrim ravish turlari nemis tilidagi ravishlarga mos kelmaydi.

Bu ravishlarning ba'zilari nemis tiliga sifat bilan berilsa, boshqalari esa so'z birikmalari orqali ifoda etiladi, jumladan o'zbek tilidagi do'stona ravishiga xos ma'no nemis tiliga freundlich yoki freundschaftlich sifati yordamida ifoda etiladi.

6. So'zlarning o'zaro qo'shilishi natijasida qo'shma ravish yasash kompozitsiya usulida amalga oshiriladi. Nemis tilida kompozitsiya usuli bilan ravishlarning yasalishi quyidagicha:

1) Ikki qadimgi ravishlarning qo'shilishidan ravishlar yasaladi;

2) Qadimgi ravishlar (bisland, vorgestern, übermorgen, jahraus, jahrein)ning boshqa turkumga oid so'zlar bilan qo'shilishi yoki otning sifat, olmosh va son bilan qo'shilishidan qo'shma ravishlar yasaladi;

3) Nemis tilining qadimgi davrida ravish hisoblanib, hozirgi davriga kelib predlogga ko'chib, turg'un holatga kelgan predlogli ravishlar deb ataladigan ravishlar qo'shma ravishlarning maxsus gruppasini tashkil qiladi.

7. O'zbek tilida kompozitsiya usuli bilan qo'shma, murakkab va juft ravishlar yasaladi. Bunday ravishlar komponentlarining birikish formasi va qanday turkumga oid so'zlardan tashkil topishiga ko'ra bir necha turga bo'linadi.

1) Ko'rsatish olmoshlariga jo'nalish, o'rin-payt yoki chiqish kelishigida kelgan yer, yoq so'zlaridan biri qo'shilishi orqali ravish yasaladi;

2) Belgilash olmoshi har biri bilan bosh, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigidagi ot, ravishlarning qo'shiluvi orqali ravish yasaladi;

3) Bosh, chiqish, o'rin-payt kelishigidagi ot va ravishlarning bir so'zi bilan qo'shilishi orqali yasaladi;

4) Hamma, hech va alla so'zlarining ot yoki ravishga qo'shilishi bilan ravish yasaladi;

5) So'zlarning takrorida ham ravishlar yasaladi: Bunday ravishlarda komponentlar aynan bir shaklda yoki turlicha shaklda bo'lishi mumkin;

6) Antonimlarning o'zaro birlashishidan juft ravishlar yasaladi;

8. O'zbek tilida bo'lganidek, nemis tilida ham ravish so'z turkumi boshqa so'z turkumlari hisobiga boyib boradi: otlar, fe'llar, butun so'z birikmalari ravish so'z turkumiga o'tadi. Adverbializatsiyaning kerakli sharti leksik ma'noning zaiflashuvi yoki ravishlangan so'z va so'z birikmalari ma'nosining o'zgarishidir.

9. Nemis tilida ravish gapda hol, aniqlovchi, ot - kesim vazifalarida, shuningdek, ba'zi ravishlar og'zaki nutqda fikrni obrazli ifodalash maqsadida qo'llanadi. O'zbek tilida ravishlar gapda kesim, fe'l-kesimga bog'lanib, hol vazifalarida keladi.

10. Ravishlar ma'no jihatidan har ikkala tilda ham quyidagi turlarga bo'linadi:

1. O'rin ravishlari (lokale Adverbien);

2) Payt ravishlari (temporale Adverbien);

3) Holat ravishlari (modale Adverbien, Adverbien der Art und Weise);

4) Sabab ravishlari (Adverbien des Grundes);

5) Maqsad ravishlari (Adverbien des Zieles, der Folge und der Bedingung);

6) Miqdor - daraja ravishlari (Adverbien des Maßes und des Grades).

11. Ravishlar morfologik tarkibiga ko’ra har ikkala tilda ham asosan sodda, qo’shma, juft ravishlarga bo’linadi. O’z navbatida sodda ravishlar o’zbek tilida ham nemis tilda ham tuzilishi jihatidan tub va yasama ravishlarga ajraladi:

12. Ikki yoki undan ortiq so’zlarning o’zaro birikishidan hosil bo’lgan ravishlar qo’shma ravishlar hisoblanadi. O’zbek tilida qo’shma ravishlar komponentlari alohida qo’llana oladigan, mustaqil leksik ma’noga ega bo’lgan qismlardan tarkib topgan ravishlar hamda o’z leksik ma’nolarini saqlagan so’zlarning aniqlovchianiqlanmish munosabatda birikishidan tarkib topgan ravishlarga bo’linsa, nemis tilida qo’shma ravishlar quyidagicha ko’rinishlarga ega boladi:

1) Olmosh-ravishlar (da, hier, wo o’rin ravishlari va an, auf, für, gegen va hokazo predloglarning birikuvidan yasaladi);

2) o’rin ravishlari + her yoki hin;

3) Predlog + her yoki hin;

4) Sifat + her yoki hin;

5) Ot + predlog;

6) Predlog + ko’rsatish olmoshi

Xulosa. O’zbek va nemis tilarida ravishlarning qiyoslanishi quyidagi xulosalarni berdi: Har ikkala tilda ham ravishlar harakat va holatning, ba’zan belgining belgisini ifodalaydi. Fe’lga bog’lanib keladi. Har ikki tilda ham sodda va yasama ravishlarga ajratiladi va qo’shimchalar qo’shish orqali yasaladi. O’zbek tilida ravishlar asosan hol vazifasida, nemis tilida esa boshqa gap bo’laklari vazifasida kelishi ham uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Admoni W. Der Deutsche Sprachbau. – Moskau – Leningrad: 1972.

2. Binjaminow J. R. Vergleichende Typologie der deutschen und usbekischen Sprache. –T.: «Ўқитувчи», 1982.

3. Duden, Grammatik der deutschen Gegenwartssprache. 4., völlig neu bearbeitete und erweiterte Auflage. Herausgegeben und bearbeitet von Günter Drosdowski. Bibliographisches Institut Mannheim/Wien/Zürich. Dudenverlag, 1984.

4. Umarxo’jayev M. Qiyosiy tipologiya masalalari. – Samarqand: SamDChtI, 2006.

5. Jung W. Grammatik der deutschen Sprache. Leipzig, 1966.9. Мирсагатов Т.С. Немецкая грамматика. Синтаксис (Vergleichend c dem Usbekischen). Ташкент - «Учитель» - 1980 г.